

QISHLOQ JOYLARDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISH

Quvatova Gulzoda Faxriddin qizi

“Iqtisodiyot va aniq fanlar” kafedrası stajyor o'qituvchisi

Xalqaro innovatsion universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8431702>

Annotatsiya: Mazkur maqolada qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sohasida xizmatlar sifati va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan qarashlar ko'rib chiqilgan, hamda bugungi kunda qishloq joylarda xizmat ko'rsatishni rivojlantirish muammolari atroflicha tahlil qilingan. Bundan tashqari aholi turmush darajasini yuksaltirish bo'yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Aholi, xizmat, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi, innovatsion rivojlanish.

Barchamizga ma'lumki hozirgi rivojlangan zamonda, dunyoning eng qudratli mamlakatlari iqtisodiyotida xizmatlar sohasining o'rne yuqori ko'rsatkichlarga ega hisoblanadi. Ushbu sohani rivojlantirish barcha davlatlar oldidagi asosiy maqsadga aylanib qolmoqda. Bunga sabab xizmatlar sohasining rivojlanishi bevosita mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi bilan parallel holatda aholining turmush darajasi va yashash sharoiti ham yuksalib boradi. Yurtimizda aholi sonining oshib borishi bilan birgalikda, yangi xizmat turlariga bo'lgan extiyoji ham ortib borishi hozirgi davr talablaridan biri hisoblanadi. Bularning barchasi aholining ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish hamda mamlakatimiz aholisining turmush darajasini oshirishning omili sifatida qarashimizga sabab bo'lmoqda. Bundan ko'rinadiki, xizmatlar sohasi aholi turmush darajasi va sifatini baholash ko'rsatkichlarini aniqlash hamda ularni boshqarish bo'yicha turli xil yechimlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni taqazo etadi. Aholiga xizmat ko'rsatish tarmoqlari tarkibini baholash va uning klassifikatsiyasini belgilash uchun iqtisodiyotning takror ishlab chiqarish jarayoni tizimida xizmat ko'rsatish tarmoqlari bajaradigan vazifalarni va ularning o'ziga xos xususiyatlarini xarakterlovchi belgi va mezonlarini ishlab chiqish kerak.

Iqtisodchi olimlarning xizmat ko'rsatish sohasini mehnat jarayoni, YaIM ishlab chiqarish, davlat va jamiyat taraqqiyoti, insoniy fazilatlar nuqtai nazaridan baholash lozimligi haqida fikr-mulohazalar mavjud. Darhaqiqat, jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida xizmat ko'rsatish sohasi bir necha tarmoqlarni va yuzlab xizmat turlarini o'zida mujassamlashtirgan keng qamrovli soha bo'lib, unda kechayotgan iqtisodiy jarayonlar esa murakkab va xilma-xildir. Shu sababli xizmat ko'rsatish sohasini baholashda davlat va jamiyatning sohada band bo'lgan ko'p sonli ishchi-xizmatchi xodimlarning, o'z mulki bilan ishtirok etayotgan mulk sohiblari va tadbirkorlarning ham manfaatleri e'tiborga olinishi lozim, deb hisoblaymiz.

Nazarimizda, xizmat ko'rsatish sohasining mohiyatini ochishda va uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi mavqiyeni baholashda, birinchi navbatda, iste'molchining manfaatleri e'tiborga olinishi lozim, ya'ni xizmat ko'rsatish sohasi, uning alohida tarmoqlari, har bir tarmoq tarkibidagi ko'p sonli xo'jalik sub'ektlari faoliyatini iste'molchi uning xizmatlarga bo'lgan ehtiyojining qondirilish darajasi nuqtai nazaridan baholashi lozim. Chunki erkin bozor munosabatlari sharoitida iste'molchi muhim hisoblanadi.

Xizmat - umumiy iqtisodiy kategoriya bo'lib, u iste'molchilar ehtiyojini qondirishga va ularning manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan mehnat faoliyatining keng tarqalgan turidir.

Mamlakatimiz olimlarining ko'pchiligi xizmat ko'rsatishning tarmoqlar tarkibini aniqlashda quyidagi o'ziga xos xususiyatlarni ko'rsatishgan:

birinchidan, xizmat ko'rsatishning eng asosiy belgisi aholini umumiy sharoitlar bilan ta'minlashdir. Umumiy sharoitlar bir tomondan, moddiy ishlab chiqarishning bevosita jarayonini ta'minlovchi, boshqa tarafdin, insonning har kunlik hayotini ta'minlashi mumkin. Bunda ishlab chiqarish jarayonida va mehnatning umumiy taqsimoti tizimida paydo bo'luvchi, insonning hayot faoliyatida va ishlab chiqarishning umumiy sharoitlar yig'indisidan iborat bo'lgan xizmat ko'rsatishga ta'rif berish mumkin;

ikkinchidan, xizmat ko'rsatishda hech qanday yangi moddiy mahsulot yaratilmaydi, balki mavjud bo'lgan xizmat turlari uchun sarflangan xarajatlar tushuniladi;

uchinchidan, xizmat ko'rsatish barcha sohalar bilan bevosita bog'liq. Xizmat ko'rsatishning vazifasi barcha ishlab chiqarish va iste'molchilarga zarur bo'lgan umumiy sharoitlarni ta'minlashdan iborat;

to'rtinchidan, xizmat ko'rsatish natijasida iste'molning foydali samarasi bilan ishlab chiqarish jarayoni mos keladi. Demak, xizmat ko'rsatishning asosiy tarmoqlaridan bo'lgan transport sohasining xususiyati shundan iboratki, u mahsulotning bir joydan ikkinchi joyga ko'chishida asosiy omil hisoblanadi. Mahsulotning xarakati, uni saqlash, yetkazish infratuzilma tarmoqlarining ishlab chiqarish jarayoni hisoblanib, asosiy ishlab chiqarish jarayoni bilan to'g'ri keladi. Shu bilan birga, asosiy ishlab chiqarish jarayonida mahsulot iste'molchiga yetkazilgandagina iste'molga tayyor bo'lishi mumkin;

beshinchidan, xizmat ko'rsatish tarmoqlari tovar va mahsulotlarni tashish va saqlash jarayonlari shaklida namoyon bo'ladi, mahsulotlarning harakatga kelishini ta'minlaydi;

oltinchidan, xizmat ko'rsatish tarmoqlarining shakllanishi va rivojlanishi yirik birlamchi kapital qo'yilmalarni talab etadi. Shundan infratuzilma ob'ektlari fond sig'imi ko'rsatkichlarining yuqoriligi kelib chiqadi;

ettinchidan, xizmat ko'rsatish samaradorligini faqat boshqa sohalar misolida aniqlash mumkin. Boshqacha so'z bilan aytganda, xizmat ko'rsatish samaradorligi asosan ishlab chiqarish tarmoqlarida namoyon bo'ladi. Binobarin, xizmat ko'rsatish faoliyatining samarasi uzoq vaqtdan so'ng seziladi.

Xizmat ko'rsatish to'g'risida yuqoridagilardan tashqari qo'shimcha belgi va xususiyatlarni ham ta'kidlab o'tish mumkin, ya'ni hududiy taalluqliligi, iste'mol jihati, xizmat ko'rsatish tarmoqlari ishlab chiqaradigan mahsulot turlari nomenklaturasining kamligi, xizmat ko'rsatish tarmoqlariga bo'lgan ehtiyojning doimiy o'sishi, moddiy ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlaridagi xizmatlarga ehtiyojlarning o'ziga xosligi, xizmat ko'rsatish tarmoqlarida yagona boshqaruv organining yo'qligi va boshqalar.

Viloyatda xizmat ko'rsatish tarmoqlarining bozor munosabatlari va raqobat sharoitida muvaffaqiyatli faoliyatini boshqarishni shunday tashkil etish kerakki, u tarmoqlarning ichki va tashqi muhitiga ta'sir qilishi shart. Buning uchun xizmat ko'rsatishning yangi tashkiliy ekonometrik modellarini yaratish lozim bo'ladi.

Bugungi iqtisodiyotni tezkor rivojlanishi sharoitida qishloqda servis xizmatlarini rivojlantirishning muhim yo'nalishi sifatida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishni taqozo etadi. Darhaqiqat, tadqiqot natijalariga ko'ra qishloqda servis xizmatlarini rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishda quyidagilarga ustuvorlik berish juda muhimdir:

Birinchidan, qishloqda servis xizmatlarini ko'rsatishning innovatsion va raqamli texnologiyalarga mos tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirish;

Ikkinchidan, qishloqda aholiga servis xizmatlarini ko'rsatishni takomillashgan klaster mexanizmlarini ishlab chiqish;

Uchinchidan, qishloqda servis xizmatlarini rivojlantirishning ekonometrik model parametrlariga asoslangan iqtisodiy mexanizmlarni rivojlantirish va takomillashtirish.

Bugungi kunda, qishloqda servis xizmat ko'rsatishni innovatsion, raqamli texnologiyalar yordamida rivojlanishida takomillashtirilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlardan foydalanish yuqori iqtisodiy samara beradi.

References:

1. Raximov A.N. Aholiga xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishini ekonometrik modellashtirish (Qashqadaryo viloyatimisolida): iqt. fan. fal. dok. diss. – T.: TDIU, 2020. –165 b.
2. Kh.S. Mukhitdinov, A.N. Rakhimov. The forecast for the development of the public services sector. Scopus, Solid State Technology, December 2020, Vol 63, № 6 (2020)
3. Abduraxmanov A.S. / Aholi turmush darajasini oshirishda xizmatlar sohasini rivojlantirish journal of marketing, business and management(jmbm)/sjif factor: 4.28, 36-37 pages.
4. Qodirov, Farrux. "Econometric modeling of medical services in the territories." *International Conference on Information Science and Communications Technologies ICISCT*. 2022.
5. Qodirov Farrux Ergash o'g'li. Econometric modeling of the development of medical services to the population of the region / Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. 2022/5/9. 1.1 Economical sciences.
6. Ergash o'g'li, Qodirov Farrux. "Aholiga tibbiy xizmat kўrsatish sohasining kelgusi xolatini bashoratlash." *Servis" ilmiy-amaliy jurnal* (2022): 56-59.
7. Ergash o'g'li, Qodirov Farrux. "Econometric modeling of the development of medical services to the population of the region." *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities* 2.1.1 Economical sciences (2022).
8. Ergash o'g'li, Qodirov Farrux. "Creation of electronic medical base with the help of software packages for medical services in the regions." *Conferencea* (2022): 128-130.
9. Ergash o'g'li, Qodirov Farrux. "Importance of kash-health web portal in the development of medical services in the regions." *Conferencea* (2022): 80-83.
10. Қодиров, Ф. "Ижтимоий ва хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантиришда соғлиқни сақлаш хизматларини эконометрик моделлаштиришнинг аҳамияти". ЎЗР ФА В.И.Романовский номидаги Математика институти, 2022.
11. Қодиров, Ф. "Вилоят аҳолисига соғлиқни сақлаш хизматлари кўрсатиш тармоқлари ривожланиш механизмининг статистик таҳлили". Andijon Mashinasozlik Instituti, 2022.
12. Қодиров, Ф. "Аҳолига tibbiy хизмат кўрсатиш соҳасининг келгуси ҳолатини bashoratlash". Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2022.
13. Qodirov, F. "Optimum solutions for the development of medical services in private clinics". Muhammad al-xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Qarshi filiali, 2022.

14. Қодиров, Ф. “Қашқадарё вилояти аҳолисига тиббий хизмат кўрсатиш тармоқларини ривожлантиришнинг истиқболлари”. «O‘ZBEKISTON QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGI» àà «AGRO ILM», 2022.

15. Қодиров, Ф. “Худудларда тиббий хизмат кўрсатишни эконометрик моделлаштириш”. Хоразм маъмун академияси ахборотномаси, 2022.

16. Qodirov, F. “Қашқадарё худуди аҳолисига хизмат кўрсатиш тармоқлари ва уларга таъсир этувчи омиллар”. “O‘zbekiston Qishloq Va Suv xo‘jaligi” Jurnal, 2022.

17. ҚОДИРОВ, Ф. “Аҳолига хизмат кўрсатиш соҳасининг моделлаштиришни тизимли имитация қилиш”. ИЈТИСОДИЙ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ОЙЛИК НАШР, 2022.

18. Қодиров, Ф. “Худудларда тиббий хизматларни дастурий пакетлар ёрдамида электрон тиббий базасини яратиш”. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Va o‘rta Maxsus ta‘lim Vazirligi Namangan Muhandislik-Qurilish Instituti, 2022.

19. Фаррух Қодиров. “Аҳолига тиббий хизмат кўрсатишдан олинган даромад ва харажатларни имитацион модели”. " Moliya bozorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to'plami. 2022/11/5

20. Ф.Э Қодиров, Аҳолига тиббий хизмат кўрсатишдан олинган даромад ва харажатларни имитацион модели, toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “o‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy, 922